Xurshid (1892-1960)



Xurshid (1892-1960)

O‘zbek mumtoz adabiyoti bilan XX asr yangi adabiyotini bir-biriga bog‘lab turuvchi ko‘priklardan biri Shamsiddin Sharafiddin o‘g‘li Xurshiddir. U o‘zbek dramaturgiyasiga poydevor qo‘ygan dastlabki ijodkorlardan biri, shoir, yozuvchi, tarjimon va rejissyordir. Ana shu ko‘p qirrali va samarali ijodiy faoliyati uchun 1990 yilda unga «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» degan yuksak unvon berilgan.

Xurshid (Shamsiddin Sharafiddinov) 1892 yilning 20 iyunida Toshkentda bog‘bon oilasida tavallud topgan. Madrasa va eski maktabda tahsil olgan. U asrimiz boshlaridan, aniqrog‘i, 1905—1906 yillardan boshlab jadid adabiyotining navqiron namoyandalaridan biri sifatida qalam tebrata boshlagan. Shu ma’noda u ma’rifatparvarlik ruhida «Eskilik va yangilik» degan dastlabki pesasini, keyinroq «Orif va Ma’ruf», «Qora xotin», «Kichik askar» kabi pesalarini, «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Siyovush», «Oybonu» singari musiqiy dramalarini yaratgan. Ayniqsa, uning Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratgan har ikki dramasi o‘z davrida juda mashhur bo‘lgan. Xurshid qator operalar librettolarini ham yozgan.

Xurshidning dastlabki she’rlari 1914 yilda «Turkiston viloyatining gazeti», «Sadoi Turkiston» gazetalari, «Tarjimon», «Oyna» jurnallari va «Tuhfai Xislat» bayozida (1914) «Xoib» taxallusi bilan e’lon qilingan. O‘z she’rlarini jamlab, «Devoni Shohidiy» nomi bilan devon ham tuzgan (1912). Shoir keyinchalik «Mushtum» jurnalida bosilgan hajviy she’rlarida «O‘jar», «Tajang», «Chayon» kabi taxalluslardan foydalangan.

Xurshid tarjimon sifatida ham samarali ijod etgan. Xususan, Shillerning «Qaroqchilar», V. Shekspirning «Qora arab», «Otello», U. Hojibekovning «Arshin mol-olan» kabi mashhur asarlarini o‘zbek tiliga ag‘dargan. Shuningdek, Sharqning buyuk shoirlaridan biri Hofiz Sheroziyning yuzga yaqin g‘azallarini ona tiliga tarjima etgan. Bundan tashqari u o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalari Munis va Ogahiy kabi shoirlar devonlarini arab grafikasidan hozirgi o‘zbek (kirill) yozuviga o‘tkazib, nashrga tayyorlagan.

Xurshid yetuk g‘azalnavis shoirdir. Uning «Chorgoh», «Giryon», «Bayot», «Ushshoq», «Segoh», «Dugoh», «Suvora» kabi kuylarga solingan ohangrabo she’rlari mashhur hofizlar tomonidan hamon ixlos bilan aytib kelinmokda. Mohir g‘azalnavis shoir, yetuk dramaturg va tarjimon Xurshidning ijodiy merosi ancha boy, serqirra va sermazmun bo‘lib, u hozir O‘zbekiston Fanlar akademiyasi H. Sulaymonov nomidagi Adabiyot muzeyida avaylab saqlanmoqda.

Xurshid 1960 yil 13 sentyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

2023-09-09 16:44:43